

Universitetda kompyuter texnologiyalarini dasturlash bo'yicha tanlov tashkil etildi.

Joriy yilning 23-noyabr kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida universitet filiali tomonidan imzolangan Memorandum va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining zarur tashabbusini amalga oshirish doirasida dasturlash va kompyuter texnologiyalari bo'yicha tanlov bo'lib o'tdi.

Mazkur tanlovni o'tkazishdan maqsad – yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan, shuningdek mamlakatimiz rivojlanishi uchun ustuvor bo'lgan sohalarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ilmiy yechim izlab topishda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yangi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqishlari uchun ularning tashabbuslari va takliflariga e'tiborni yanada kuchaytirish sanaladi.

Musobaqada quyidagi jamoalar ishtirok etishdi:

- G. V. Plexanov nomidagi RIUning Toshkentdagi filiali
- "MISIS" MTTU ning Olmaliq shahridagi filiali
- -M.V.Lomonosov nomidagi MDUning Toshkentdagi filiali
- "Rossiya Federatsiyasi TIVning MDXMI ning Toshkent shahridagi filiali
- Toshkentdagi Turin politexnika universiteti

Ishtirokchilar samarali va yaxshi muvofiqlashtirilgan jamoaviy ishlash mahoratini namoyish etdilar!

Hakamlar hay'ati qaroriga ko'ra:

1-o‘rin – “MISIS” MTU ning Olmaliq shahridagi filiali


2-o‘rin – “Rossiya Federatsiyasi TIVning MDXMI ning Toshkent shahridagi filiali

3-o‘rin – Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti egalladi

Tanlov g‘oliblari va ishtirokchilari qimmatbaho sovg‘alar va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar!

Universitet rahbariyati jamoalarga faol ishtiroki uchun minnatdorchilik bildiradi! Dekabr oyida talabalarni sport dasturlariga taklif qilamiz!





ДОБРО ПОЖАЛОВАТЬ
НА КОНКУРС ПО ПРОГРАММИРОВАНИЮ
КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ!



КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ!





